



MUSEUM ROBBINGS

(1920–1925 on the example of the Fergana Museum)

Karimov Islamjon Ilkhomjon oglu

Namangan State University

independent researcher

karimovislomjon95@mail.ru

93-405-08-54

Abstract: This article highlights the museums established in the territory of Turkestan as a result of various exhibitions, focusing specifically on the activities of the Fergana Museum in the early 1920s. It explores the robberies and lootings that occurred in these museums due to the negligence of the local government and other administrative bodies, as well as the impact of these events on the museum's exhibition activities.

Keywords: looting, naphthalene, museum of regional studies, World Exhibition, museum, graphite, Yuldash Akhunbabaev, S. D. Dmitriev.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkiston hududida turli-xildagi ko'rgazmalar natijasida tashkil etilgan muzeylar, xususan Farg'ona muzeyining XX asrning 20-yillari boshlaridagi faoliyati, mahalliy hokimiyat va boshqa boshqaruv organlarning muzeylar faoliyatiga e'tiborsizligi natijasida ularda sodir bo'lgan talonchiliklar va ularni muzeyning namoyish faoliyatida ta'siri yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: talonchilik, naftalin, o'lkashunoslik muzeyi, Butunjahon ko'rgazmasi, muzey, grafit, Yo'ldosh Oxunboboev, S. D. Dmitriyev.

Muzeylar azaldan turli soha vakillarini o'ziga jalb qilib kelgan. Ba'zi soha vakillarni muzeylarni rivojlantirish va bu orqali ma'naviy va moddiy boyliklarni asrab avaylash haqida qayg'ursa, boshqalari esa muzey boyliklarni qanday yo'llar bilan o'zashtirish va moddiy boylik ortirish haqida o'ylaydi. Bu aksiomalar ilk muzeylar tashkil etilganidan boshab to hozirga qadar ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.



Turkistondagi dastlabki muzeylar Rossiya imperiyasi tomonidan bir necha maqsadlarda tashkil etilgan, Birinchidan muzeylar yangi o'lkani hayoti bilan tanishish imkonini bersa¹ boshqa tomondan esa markaziy muzeylar va imperator saroylarini bezash maqsadida noyob osori-atiqalar yig'ish vositasi edi. XIX asrning 70-yillaridan boshlab Rossiya imperiyasi ma'muriyati va turli sohalar uchun tashkil etilgan ilmiy jamiyatlar orqali o'lkaning qimmatbaho va nodir buyumlarini tortib olishning yangi usuli yaratildi, turli-xil ko'rgazmalarni tashkil etib, ushbu masalani "qonuniy tarzda" amalga oshirdilar. Turkistonda o'lkani miqyosida 1876–1888-yillarda 7 ta ko'rgazma tashkil etildi. Keyingi yillarda esa 1911-yilida 13 ta, 1912-yilda 2 ta, 1915-yilda 2 ta, va 1916-yili esa 1 ta badiiy ko'rgazma uyushtirildi. Bulardan tashqari, 1870-1913 yillar oralig'ida 7 marta Umumrossiya, 1873-1914 yillar oralig'ida 10 marta jahon ko'rgazmalarida Buxoro amirligi va Xiva xonliklari Turkiston o'lkasining ajralmas bir qismi sifatida ishtirok etdilar². Tabiiyki, bunday ko'rgazmalar Markazda tuzum o'zgarib, hokimiyat sovetlar qo'liga o'tgach ham davom ettirilib, ularda namoyish etilgan eksponatlarning noyob nusxalari Peterburg va Moskvaga yuborildi.

Ushbu ko'rgazmalarning o'ziga xos tomoni shunda ediki, unda namoyish etilgan noyob ashyolarni markazga olib ketish bilan birgalikda, to'plangan boshqa ashyolar asosida turli hududlarda dastlabki muzeylar ham tashkil etib borildi. Xususan, 1894-yilda Yangi Marg'ilon shahrida 16-oktyabrdan 7-noyabrga qadar Farg'ona qishloq xo'jaligi va sanoat ko'rgazmasi natijasida Farg'ona viloyat xalq muzeyi³, 1924-yil 15-oktyabrda Qo'qon shahridagi Xudoyorxon O'rdasida tashkil etilgan sanoat va qishloq xo'jaligi ko'rgazmasi asosida Qo'qon okrug muzeyi⁴,

¹ Добросмыслов А. И. Ташкент в прошлом и настоящем исторический очерк. – Ташкент: Электропаровая типолитограф. О. А. Порцева, 1912. – С. 227.

² Алимова Д. va boshqa. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини сиёсати: тарих шохидлиги ва сабоқлари. – Т.: Шарк, 2000. – Б. 348.

³ Туркестанские ведомости. – 1895. – № 83.

⁴ Ахмедов Ж. З. Фарғона водийсидаги тарихий-маданий ёдгорликларни музейлаштириш (XIX–XXI асрлар). Тарих фан. бўй. фалс. док. (PhD) дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 61.



1929-yilda Qoraqalpog‘istonda tashkil etilgan ko‘rgazma asosida To‘rtko‘l shahrida Qoraqalpog‘iston markaziy o‘lkashunoslik muzeyi⁵, 1933-yilda Surxondaryoda o‘tkazilgan qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasi asosida Surxondaryo tumanlararo muzeyi⁶, va 1934-yilda Andijon viloyatida o‘tkazilgan qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasi asosida Andijon viloyat o‘lkashunoslik muzeylari tashkil etilgan⁷.

Rossiya imepriyasi davrida Turkiston hududidagi dastlabki muzeylar Toshkent, Samarqand va Farg‘ona shaharlarida tashkil etilgan. Farg‘ona vodiysida dastlabki muzey, garchi 1895-yilda tashkil etilgan bo‘lsa-da, 4 yil davomida faqat maxsus mehmonlarni qabul qilgan xolos. 1899-yilga kelib Farg‘ona viloyat xalq muzeyi nomi bilan omma uchun ochilgan⁸. Dastlabki yillarda muzey eksponatlari turli qiyinchiliklar bilan to‘plangan bo‘lsa-da, Farg‘ona viloyat gubernatorligi qoshidagi muzey qo‘mitasi vakillari tomonidan ko‘plab noyob, ashyolar har yili imperiyaning markaziy muzeylari va turli ilmiy jamiyatlar fondlariga yuborib turilgan. Xususan, muzeyning 1900-yilgi hisobotida keltirilishicha, 1900-yilda Moskva ommaviy muzeyi va Rumyansev muzeyiga muzeyning etnografik kolleksiyasidan 18 ta noyob ashyo, Moskva amaliy bilimlar muzeyiga tabiiy-tarixiy kolleksiyadan 34 ta ashyoni hadya sifatida jo‘natilgan⁹. Bundan tashqari muzey turli-xildagi mahalliy va xorijiy ko‘rgazmalarga ham ishtirok etgan. Masalan, 1899-yilda “Turkiston foto va nafis san‘at ishqibozlari jamiyati” tomonidan tashkil etilgan 1-Turkiston ko‘chma foto-ko‘rgazmasida, Turkiston o‘lkasi delegati M. I. Shanyavskiyga etnografiya, tabiiy-tarixiy va sanoatga oid kolleksiyalarini topshirib, 1900-yilda Parij Butunjahon ko‘rgazmasining Turkiston bo‘limida ishtirok etgan¹⁰. Lekin mazkur ko‘rgazmalarga yuborilgan ashyolar muzeyga qaytarilmagan. XX asr

⁵ Садькова Н. С. Музейное дело в Узбекистане. – Т.: Фан, – С. 170.

⁶ Курязова Д. Т. Музей иши тарихи ва назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – Б. 44.

⁷ O‘zR MA. R-2294-fond, 3-ro‘yxat, 4-ish, 121-varaq.

⁸ Farg‘ona viloyati xalq muzeyining 1900-yilgi hisoboti. – B. 5.

⁹ Farg‘ona viloyat xalq muzeyining 1900-yilgi hisoboti. – B. 3.

¹⁰ Иванов Г. П. Фарғона ўлкашунослиги. – Фарғона: Фарғона, 1996. – Б. 11.



boshlaridan muzeyga xayriya mablag'larini ajratilishini to'xtashi va mahalliy ma'murlar e'tiborini susayishi natijasida 1911-yildan boshlab faoliyatini to'xtatadi.

XX asrning 20-yillarini ya'ni sovet tuzumining dastlabki davrini rosmiyan "o'lkashunoslikning oltin o'n yilligi" bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Aynan shu davrdan "O'lkashunoslik muzeylari" atamasi keng qo'llanilib, eng olis hududlarda ham o'lkashunoslik tipidagi muzeylar tashkil etila boshladi. Xususan, Farg'ona vodiysida ham bu yillarda Sovet hukumati tomonidan, imperiya davrida tashkil etilgan muzeylardan farqli ravishda ma'lum bir ixtisoslikka ega o'lkashunoslik muzeylari tashkil etila boshlandi. 1920-yilda tashkil etilgan Farg'ona shahar ilmiy muzeyi, Namangan shahar o'lkashunoslik va 1925-yilda tashkil qilingan Qo'qon okrug muzeylari shunday muzeylardan edi.

1920-yil 15-yanvarda Farg'ona viloyatida Farg'ona shahar ilmiy muzeyi tashkil etilib, 5-sentyabrdan omma uchun faoliyatini boshladi¹¹. Uning 1920–1950-yillar oralig'idagi faoliyatiga oid arxiv hujjatlarida bir necha marta muzey ashyolariga nisbatan talonchilik holatlari qayd etilgan. Bu holat nafaqat Turkiston, balki Butunrossiya muzeylariga ham xos xususiyat bo'lib, 1920-1925 yillarda ko'plab muzeylarda numizmatik kolleksiyalardan tortib oddiy poyabzallargacha o'g'irlab ketish holatlari kuzatilgan¹². Farg'ona shahar ilmiy muzeyidagi birinchi talonchilik 1920-yilda ya'ni faoliyati boshlangan yilni o'zidayoq sodir bo'lgan. Talonchilar tunda qoravulni kaltaklab, muzey ichiga kirishadi, dastlab spirt qidirish ilinjida hayvonlar embrionlari solingan idishlarni sindirib ichidagi formalin suyuqligini to'kib tashlashadi, so'ngra ikkinchi zaldagi vitrinadan bir necha o'ram ipak matolarni o'g'irlashdi¹³. Bu xolat esa fondlarini endigina boyita boshlagan muzey ma'murlarini faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatgan.

¹¹ Мирзаев М.А. Ўзбекистонда тарихий маданият ёдгорликларни муҳофаза этиш ва ўрганиш ишининг ташкил топиши ва ривожланиши (1917-1941 йиллар): Тарих фан. номз. илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс. – Тошкент: Ўзбекистон миллий университети, 1994. – Б. 40.

¹² <https://hook.report/2022/09/museum-ca-1/> (Murojaat qilingan sana 10. 05. 2026)

¹³ Farg'ona viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi arxivi. 194-sonli hujjat, 33-varaq.



1922-yil 16-apreldan 17-aprelga o‘tar kechasi Farg‘ona shahar muzeyida navbatdagi o‘g‘irlik sodir etildi. 21-aprel kuni muzey mudiri E. Balkanskiy qoravul va farrosh Y. Geyshtor va jinoyat qidiruv bo‘limi xodimi B. Graniskiylar ishtirokida dalolatnoma tuzilgan. Ushbu dalolatnomaga ko‘ra 16-aprel kuni muzeyning asosiy va laboratoriya binolarida 2 ta o‘g‘irlik sodir etiladi. Muzey asosiy binosidagi o‘g‘irlik natijasida, Qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik bo‘limidan: 31 dona urug‘ namunalari, 38 dona ipak matolar, 5 dona ro‘mol, 5 dona ip kalava, 21 dona o‘ralgan ipak; Etnografiya bo‘limidan: 2 dona kumush uzuklar, 1 dona yo‘g‘och piyola, 4 dona gilam, 2 dona baliqchilik to‘ri, 3 dona sopol idish, 3 dona mis qumg‘on, 2 dona g‘ilofli ko‘zoynak, 1 dona dasturxon, 4 dona tukli sochiq yo‘qolgan bo‘lsa¹⁴, Laboratoriya xonasidan esa, elektr lampa, Xitoy kolleksiyasidan yashil mato, bir bog‘lam grafit, oq qog‘oz, shisha idishlar va kutubxonadan bir nechta kitoblar o‘g‘irlangan. Jinoyat qidiruv bo‘limi xodimlari tomonidan batafsil ko‘zdan kechirish va inventar kitoblari bo‘yicha tekshiruv natijasida, o‘g‘irlangan buyumlarning ba‘zilari o‘g‘irilar tomonidan voqea joyida tashlab ketilgani ham ma‘lum bo‘ldi¹⁵. Lekin shunday bo‘lsa-da bu o‘g‘irlik muzeyning namoyish faoliyatiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Mas‘ul xodimlarning bir qancha harakatlariga qaramay na o‘g‘irilarni va na o‘g‘irilangan ashyolarni topish imkoni bo‘lmagan. Muzey ma‘muriyatining bu kabi holatlarni oldini olish borasidagi bir qancha harakatlari samarasiz tugadi. Xususan, muzeyga qo‘shimcha texnik xodim va tungi qoravullarni jalb qilish borasidagi takliflari ijobiy hal qilinmadi. Xodimlar tarkibi 2 nafardan (mudir va farrosh) oshirilmadi. Bu sondagi xodimlar va yuqori turuvchi organlarning sohaga bunday e‘tibori uning xavfsizligiga ta‘sir etmay qolmagan.

Mahalliy ma‘murlarning muzeydagi talonchiliklar yetarli darajada e‘tibor qaratmagani ortidan shu yilning 26-sentyabrida ikkinchi bor yangi talaonchilik sodir

¹⁴ FV DA, R-1150-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish, 114-varaq.

¹⁵ FV DA, R-1150-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish, 118-varaq.



bo'ladi¹⁶. O'g'rilar qorovulxona derzasini sindirib, ichkaridagi kalit bilan eshikni ochishgan, dastlab birinchi zalga (qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik bo'limi) kirib, u yerda Xitoy va mahalliy buyumlar saqlanuvchi vitrinani buzib, ipak matolar va pillalar saqlanadigan shkafdan pilla namunalarini o'g'irlashgan. So'ngra, kalit bilan zallar o'rtasidagi yo'lak eshigini ochib, u yerdagi mahalliy va xorijiy tangalar ekspozitsiyasidagi 2 ta vitrinani ochishgan. Vitrinadan birining qulfini buza olishmagach, oynasini sindirishgan va kumush tangalar namunalarini olishgan.

1922-yil 27-sentyabrda jinoyat qidiruv bo'limi xodimi Krivorotov, fuqaro Savchukova va muzey xodimi Matrena Gladkova ishtirokida o'g'rilik tafsilotlari haqida dalolatnoma tuzilgan. Lekin muzey mudiri E. Balkanskiyning kasalligi va davolanayotganligi tufayli ko'rgazmalardan aniq qancha eksponat yo'qolganligini aniqlash imkoni bo'lmagan. Shuning uchun, E. Balkanskiy sog'ayib qaytgunicha muzey muhrlanib faoliyati vaqtinchaga to'xtatilgan. 1922-yil noyabrda Krivorotov, muzey xodimi Matrena Gladkova va E. Balkanskiy ishtirokida qayta dalolatnoma tuzilib o'g'irlangan ashyolar ro'yxati tuzildi. Unga ko'ra, Qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik buyumlari bo'limidan: 4 dona ipak va yarim ipak mato namunalari, Numizmatika bo'limidan: 35 ta mahalliy va xorijiy tangalar, 1 dona medal (1891-yilda Moskvada o'tkazilgan O'rta Osiyo ko'rgazmasi xotirasiga bag'ishlangan). Etnografiya bo'limidan: 5 dona mahalliy aholidan gubernatorga kelgan xatlar g'ilofi bilan, 1 juft charmdan tikilgan tufli, 4 dona ayollar boshiga taqiladigan zeb-ziynatlar, 1 dona Xitoy choydishi, Xitoy o'yin kartalari to'plami, 2 dona Xitoy trubkasi (tamaki chekish uchun), 2 juft ko'zoynak, 2 dona Xitoy ovqatlanish tayoqchalari bundan tashqari, kutubxonadan yozuv uchun kartochkalar to'plami, blankalar va pochta markalari o'g'irlanganligi aniqlangan¹⁷. Ushbu o'g'rilik shunchaki bir guruh shaxslar tomonidan uyushtirilgan talonchilik harakatigina emas, balki XX asrning

¹⁶ FV DA, R-1150-fond, 1-ro'yxat, 3-ish, 111-varaq.

¹⁷ FV DA, R-1150-fond, 1-ro'yxat, 3-ish, 112-varaq.



20-yillaridagi Turkistondagi muzeylar qanday ijtimoiy-huquqiy sharoitda faoliyat olib borganini ham anglatadi. Ushbu yillardagi muzeylar uchun umumiy tavsif birinchi navbatda muzey boshqaruvi va uning xavfsizlik tizimi to'liq ravishda mudir va farroshga bog'liq bo'lganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga muzeyda eksponatlarni hisobga olish va inventarizatsiya qilish tizimi to'liq yo'lga qo'yilmaganligi tufayli, bu kabi talonchiliklarda aniq qancha va qaysi turdagi ashyolarni o'g'irlanganligi to'g'risida aniq ma'lumotlarni berish imkoni bo'lmagan.

Garchi shu va shu kabi talonchiliklar natijasida muzeyda yillar davomida to'plangan ashyolar yo'qotilib, ular o'z ekspozitsiyalarini to'liq ochib berish uchun ham yetarli bo'lmasa-da Markaz topshirig'i bilan 1923-yil 28-mayda Moskva qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik ishlab chiqarish ko'rgazmasiga Farg'ona muzeyidan 4 ta yashiqda jami 120 dona eksponat majburan yuborilgan¹⁸. Bu to'plamda 32 dona paxtadan tayyorlangan mato, 15 dona turli urug' namunalari, 35 dona etnografik buyumlar, 21 dona bolalar o'yinchog'i, 16 dona sopol buyumlar mavjud bo'lgan¹⁹. Ammo ko'rgazma tamomlangach, ushbu eksponatlar muzeyga qaytarilmay, Turkiston MIQ XKSning 1923-yil 5-dekabrda qaroriga ko'ra O'rta Osiyo muzeyining qishloq xo'jaligi bo'limiga olib qo'yiladi²⁰. Hatto 1927-yilda 9-sentyabrda Farg'ona shahar ilmiy muzeyiga tashrif buyurgan O'zbekiston SSR MIQ raisi Yo'ldosh Oxunboboevdan muzey mudiri S. D. Dmitriyev 1923-yildagi Butun ittifoq qishloq xo'jaligi ko'rgazmasiga yuborilgan eksponatlarni qaytarilishida amaliy yordam so'raydi²¹. Lekin bu urinish ham natijasiz tugagan.

Muzeydagi talonchiliklar nafaqat tunda, balki kunduzi, muzey ochiqligida ham ro'y beradi. Xususan, 1925-yilda 19-avgustda muzey xodimlari ekskursiya bilan band bo'lgan vaqtda 158-raqamda saqlanayotgan xanjar²², bundan tashqari shu yili

¹⁸ O'zR MA, R-394-fond, 1-ro'yxat, 56-ish, 14-varaq.

¹⁹ FV DA, R-1150-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 230-varaq.

²⁰ O'zR MA, R-94-fond, 5-ro'yxat, 357-ish, 16-varaq.

²¹ FV DA, R-1150-fond, 1-ro'yxat, 6-ish, 155-varaq.

²² FV DA, R-1150-fond, 1-ro'yxat, 3-ish, 123-varaq.



sentyabr oyida qurol-aslahalar vitrinasidan “Buldog” tipidagi barabanli, 6 ta o’q sig’imiga ega revolver pistoleti ham o’g’irlanadi²³.

Xulosa qilib aytganda, 1920–1925-yillarda muzeydagi turli-xildagi talonchiliklar, ko’rgazma zallarida nazorat sust olib borilganligi, xodimlar yetishmovchiligi tufayli, qishloq xo’jaligi bo’limida 115 ta, sanoat bo’limidan 222, numizmatika bo’limidan 137, tabiiy-tarixiy bo’limdan esa 1580 ta eksponatlar sotib yuborilgan. Shunday bo’lsa-da, 1920-yilda qishloq xo’jaligi bo’limiga 102 ta, tabiiy-tarixiy bo’limi bo’limga 802, etnografiya bo’limiga 1 ta yangi osori-atiqalar olib kelindi²⁴. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, 2054 ta eksponat sotib yuborilgan bo’lsa, 905 ta eksponat olib kelingan.

²³ FV DA, R–1150-fond, 1-ro’xat, 3-ish, 127-varaq.

²⁴ Мирзаев М.А. Ўзбекистонда тарихий маданий ёдгорликларни муҳофаза этиш ва ўрганиш ишининг ташкил топиши ва ривожланиши (1917-1941 йиллар): Тарих фан. номз. илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс. – Тошкент: Ўзбекистон миллий университети, 1994. –Б. 40.